

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

M.Q.Isaqova

Qo'qon davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya : Ushbu maqolada STEAM ta'lim tizimining mohiyati, uning boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanish imkoniyatlari hamda o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tomondan tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. STEAM yondashuvi asosida o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish, fanlararo integratsiyani ta'minlash hamda zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish yo'llari yoritilgan

Kalit so'zlar: STEAM, integratsiya, innovatsion ta'lim, kreativlik, fanlararo yondashuv, boshlang'ich ta'lim.

Bugungi kunda ta'lim tizimida ilg'or pedagogic texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashuv va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa raqamli texnologiyalar va falararo yondashuvni uyg'unlashtiruvchi STEAM ta'lim modeli boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

STEAM (Science, Technique, Engineyering, and Math) Amerikada ishlab chiqilgan bo'lib, ayrim maktablar ta'lim tizimida bevosita kuzatishlardan kelib chiqib tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, matematika fanlarini integratsiyalashgan holda o'rgatish targ'ib qilinadi. Keyinchalik bu fanlarga qo'shimcha ravishda san'at (art) ham qo'shib, endilikda STEAM oxirigacha shakllandi deyish mumkin. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat:

- muammoga aniq yechim topish va tanqidiy fikrlash;
- ijodkorlik va yangicha yondashuv;
- jamoda ishlash va kommunikativ ko'nikmalar;
- nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish.

STEAM modelida "bilimni egallashdan ko'ra" "bilimni amaliy jihatdan qo'llashga" alohida ahamiyat qaratiladi. Shu sababli bu yondashuvda o'quvchilar o'rganayotgan mavzularni tajriba, loyiha yoki ijodiy faoliyat orqali mustahkamlaydilar. Aynan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'lim jarayoni ko'proq o'yin, amaliy faoliyat va tajriba asosida shakllantirilsa, ularning bilimni o'zlashtirish darajasi sezilarli oshadi. Shu jihatdan STEAM yondashuvi quyidagi yo'nalishlarda samara beradi:

1.Integratsiyalashgan darslar. Masalan, "Tabiiy fanlar" darsida o'simliklarning o'sish bosqichlarini o'rganish bilan birga, ularning tasviriyl san'atda chizish yoki plastilindan modellashtirish topshirig'i beriladi. Natijada, o'quvchilarning kuzatish va tasvirlash ko'nikmalari bir vaqtda rivojlanadi.

2. Tajriba va kuzatuv faoliyati. Boshlang‘ich sinflarda oddiy kimyoviy yoki tabiiy jarayonlarni kuzatish (masalan, suv aylanishi yoki magnit kuchini sinab ko‘rish) orqali o‘quvchilarda ilmiy qiziqish uyg‘onadi va tasavvur hosil bo‘ladi.

3. Loyiha asosidagi ta‘lim. O‘quvchilarning pedagogic-psixologik holatiga mos ravishda berilgan mavzular asosida, (masalan, “mening orzu shahrim”, “energiyani tejash” kabi) kichik loyihalarni ishlab chiqish jarayonida fan, texnologiya va san‘at tarkibidagi dizayn elementlarini uyg‘unlashtiradilar. Bu esa ularni mustaqil fikrlash va mas‘uliyatni his etishga o‘rgatadi.

4. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash. Scratch, Code.org kabi dasturlarda oddiy kod yozish, mini o‘yinlar yaratish yoki robototexnika to‘plamlaridan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini kuchaytiradi.

Yuqoridagi tahlillarda qayd etilganidek, STEAM ta‘lim tizimini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qo‘llash imkoniyatlari juda keng. Maktab faoliyatida bu tizimni yetarlicha qo‘llay olish esa ta‘lim samaradorligiga yuqori ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEAM asosida tashkil etilgan ta‘lim, o‘quvchilarda fanlarga nisbatan motivatsiya oshirishda, ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda, markazli o‘qish tamoyillarni shakllantirishda, bilimlarni real hayotga tatbiq etish ko‘nikmasini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi – bugungi ta‘lim islohotlarida eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Demak, bu yondashuv boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim metodik asos bo‘lib, u orqali o‘quvchilar bilimni yaratadigan tahlil qiladigan va real hayotda qo‘llay oladigan shaxslarga aylanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori. “2021-2023-yillarda umumiy o‘rta va maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”.

2. Jo‘rayev.N. Boshlang‘ich ta‘limda integrativ yondashuvning ahamiyati. Toshkent: O‘qituvchi, 2022.

3. Raxmanov. R. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

4. Xodjayeva. M. Boshlang‘ich sinflarda kreativlikni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

5. Yakubova.G. Ta‘limda raqamli texnologiyalar va STEAM integratsiyasi. Toshkent: Fan, 2021.